



XALQARO KO'LAMDA AVTOMOBILDA TASHISH MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHGA QARATILGAN KOLLIZION MASALALAR

Umarov Shahzodjon Sherzodovich

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti talabasi
umarovshahzod2002@gmail.com +998 (93) 460-22-09
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10074790>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil
Ma'qullandi: 04- November 2023 yil
Nashr qilindi: 06-November 2023 yil

KEY WORDS

xalqaro tashish, xalqaro avtomobilda tashish, transport konvensiyalari, hududiy ustuvorlik tamoyili, kollizion bog'lanish, intermodal tashishlar.

ABSTRACT

Xalqaro ko'lamda yuk va yo'lovchilarni tashish Xalqaro xususiy huquq modulining muhim institut hisoblanadi. Ushbu maqola xalqaro ko'lamda yuk va yo'lovchilarni avtomobilda tashish jarayonida vujudga keluvchi kollizion masalalarini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq munosabatlarni ochib beradi.

Hozirgi davrda mamlakatlar o'rtasida tashqi iqtisodiy, madaniy, ilmiy texnikaviy aloqalar tobora yildan yilga o'sib bormoqda. Ushbu aloqalarning kuchayishi va rivojlanishi xalqaro transport aloqalarining kengayishiga, yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish muammolarini huquqiy hal etishga olib keladi. Yuridik manbalarda, xususan I.V.Getman-Pavlovaning Xalqaro xususiy huquq bo'yicha darsligida xalqaro tashish terminiga "xalqaro shartnomalarda va qonun hujjatlarida yuklar va yo'lovchilarni ikki yoki undan ortiq mamlakat o'rtasida tashish **xalqaro tashish** yoki **xalqaro qatnov**"¹ deb atalishi belgilangan. Xalqaro miqyosdagi tashishlar xalqaro xususiy huquq modulining xalqaro xususiy transport huquqi institutini asosini tashkil etadi. Xalqaro xususiy transport huquqining predmeti – ikki yoki undan ortiq davlatning huquq-tartiboti bilan bog'liq yuk va yo'lovchi tashish sohasidagi majburiyatlar hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar xorijiy o'quv adabiyotlarida huquqiy normalarni birlashtirish(unifikatsiya qilish) bo'yicha bu darajada ko'p xalqaro shartnomalar mavjud bo'lgan boshqa huquq sohasi deyarli mavjud emasligiga e'tibor qaratishadi.

Avvalo shuni aniqlashtirib olish lozimki, chet davlat hududiga yuklar va yo'lovchilarning kirib kelishi o'zining yuridik tabiatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki xil holatda yuz berishi mumkin:

- 1) Xalqaro tashish to'g'risida ikki davlat o'rtasida bitim mavjud bo'lmagan hol;
- 2) Xalqaro tashish to'g'risida ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitim mavjud bo'lgan hol.

Davlatlararo bitimlar, ular ko'p sonli bo'lishiga qaramay, mamlakatlar o'rtasida yuklar va yo'lovchilarni tashishni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keluvchi ko'pgina masalalar yuzasidan yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga olmaydi. Bunday hollarda, boshqa huquqiy manba yo'qligi sababli xalqaro qatnov tartibotini belgilash doimo ichki qonun hujjatlarining normalari yordamida amalga oshiriladi.

Amaliyotda xalqaro qatnovlarning har xil turlari ma'lum ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Transportning qaysi bir turidan foydalanishga qarab xalqaro qatnov temiryo'l, havo, dengiz, avtomobil transportida tashishlarga ajratiladi. Shuningdek, quvur orqali tashish ham mavjud, ammo u tashish shartnomasini vujudga keltirmaydi. Chunki bunda asosiy subyekt hisoblanuvchi yetkazib beruvchi mavjud emas. Shuningdek, intermodal tashishlar ham mavjud, xususan O'zbekiston Respublikasining deyarli ko'pchilik xalqaro tashish bo'yicha ikki tomonlama shartnomalarida (Niderlandiya qirolligi, Buyuk Britaniya) intermodal tashish tushunchalariga ta'rif berilgan ya'ni, bunda yuklarni avval avtomobil yo'llaridan yoki davlat terminalidan, so'ngra temir yo'llari, suv yoki dengiz yo'llari orqali tashilishini bildirishi belgilangan.

Hozirgi vaqtda xalqaro shartnomalar ichki suv transportidan tashqari transportning boshqa barcha turlarida xalqaro qatnovlarni huquqiy tartibga solishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda 1956-yil 19-mayda Jenevada qabul qilingan "Yuklarni xalqaro avto yo'llarda tashish to'g'risida" Konvensiya ham mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 1995-yil 31-avgustda qo'shilgan edi. 1978-yil 5-iyul Jenevada qabul qilingan Bayonnomaga asosan ushbu konvensiyaga ma'lum o'zgartirishlar kiritildi, O'zbekiston Respublikasi ushbu bayonnomaga 1996-yil 26-noyabrda qo'shilgan. Ushbu konvensiya yuklarni xalqaro avto yo'llarda tashish shartnomalarini qo'llanish doirasi, shartnoma tuzish va bajarish, transportyor va jo'natuvchining huquq va majburiyatlari huquqiy tartibga solingan. Bundan tashqari, tashish predmetiga ko'ra, yo'lovchi tashish munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan "Xalqaro ko'lamdagi yo'lovchi va yuklarni avtomobillarda tashish to'g'risida"gi konvensiyaga ilova hisoblanuvchi Mustaqil davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning xalqaro aloqalarida yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalarini mavjud. Bunda yo'lovchilar va yuklarni avtobuslar orqali muntazam va tartibsiz xalqaro avtobus qatnovida tashish jarayoni, tashuvchi, yo'lovchi, haydovchining huquq va majburiyatlari hamda chiptani qaytarish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan.

Davlatning o'z hududida transport faoliyatini tartibga solishda davlatning hududiy ustuvorlik tamoyili qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, har bir davlat o'z hududida transport faoliyatini tartibga solishda mutlaq huquqqa egadir. O'zbekiston Respublikasi ko'plab transport konvensiyalariga qo'shilgan bo'lib, tashqi yuklarni jo'natish va qabul qilishda korxonalar va fuqarolar ushbu konvensiyalarning qoidalariga amal qiladilar. Transport konvensiyalarining normalari tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi konvensiyalarning normalariga nisbatan imperativ (majburiy) tusga ega.²

Yuklar va yo'lovchilarni xalqaro tashish shartnomalarining mohiyati shundan iboratki, tomonlarning bitimlari asosida transport tashkiloti yukni va(yoki) yo'lovchini tayinlangan punktga eltib qo'yish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, buning uchun yuk egasi yoki yo'lovchi tashish haqini to'lash majburiyatini oladi. Taraflarning boshqa majburiyatlari

tashish shartnomasining ana shu asosiy mazmunini aniqlashtiradi va to'ldiradi xolos. Xalqaro transportda tashish shartnomasining huquqiy ahamiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan, shartnoma, bir tomondan, yuk egalari va yo'lovchilar, ikkinchi tomondan, transport tashkilotlari o'rtasida paydo bo'luvchi tashish bo'yicha majburiyatlar yuzaga kelishining huquqiy asosi hisoblanadi.

Ikkinchidan, transport jarayonini amalga oshirish uchun yuk egalari, yo'lovchilar va transport tashkilotlarining ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini hisobga olib, xalqaro bitimlar va milliy qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tashish shartlarini aniqlashtirish zarur bo'ladi, shuningdek ularning munosabatlarini shartnoma bilan rasmiylashtirish talab qilinadi.

Uchinchidan, xalqaro tashish shartnomasi taraflar tomonidan tashish bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ularning mulkiy javobgarligiga asos bo'ladi.³

Nazariy jihatdan xalqaro transport masalalariga oid xalqaro shartnomalarni tizimlashtirish uchun huquqiy tartibga solish obyektini mezonidan kelib chiqilgan holda transport konvensiyalarini quyidagi yettita guruhga bo'lish mumkin:

1. transport alohida turlari faoliyatining umumiy tamoyillari to'g'risidagi bitimlar;
2. mamlakatlar o'rtasida xalqaro qatnovni tashkil etish to'g'risidagi bitimlar;
3. yuklar va yo'lovchilarni tashish shartlari to'g'risidagi bitimlar;
4. tashish tariflari to'g'risidagi bitimlar;
5. mamlakatlar o'rtasidagi transport aloqalarini yengillashtirishga (soddalashtirishga) qaratilgan bitimlar;
6. transport ayrim turlari faoliyatining o'ziga xos tomonlarini tartibga soluvchi bitimlar;
7. xalqaro transport sohasida mulkiy manfaatlar himoya qilinishini nazarda tutuvchi huquqni muhofaza qilish xususiyatidagi bitimlar.

Xalqaro tashishlarga nisbatan qo'llaniladigan ichki huquq hujjatlari. Xalqaro tashishlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ichki huquq hujjatlarini umumiy shaklda beshta guruhga bo'lish mumkin:

- umumiy qonun hujjatlari; ("Transport to'g'risida"gi Qonun)
- transportga oid qonun hujjatlari; ("Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonun)
- xalqaro qatnovni tartibga solish uchun maxsus chiqarilgan hujjatlar; ("Avtomobilida yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori)
- qabul qilinishi xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan hujjatlar;
- xalqaro qatnovlarni amalga oshirishga ko'maklashishi kerak bo'lgan hujjatlar. ("O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori)

Shuningdek, xalqaro tashish shartnomasi va ichki tashish shartnomasi o'rtasida qanday farq bor degan savol tug'ilishi mumkin? Xalqaro tashish shartnomasi belgilangan maqsadi va asosiy huquqiy belgilariga ko'ra ichki qatnovdagi tashish shartnomasi bilan bir xildir. Bunday o'xshashlik, birinchidan ikkala shartnoma mavzusining bir xilligi (bir joydan

boshqa joyga olib borish faoliyati), ikkinchi tomondan xalqaro qatnovlar to'g'risidagi bitimlarni ishlab chiqishda milliy transport huquqi normalaridan keng foydalanilishi bilan bog'liq.

Xalqaro tashishlarni amalga oshirish uchun tegishli xalqaro bitim yoki ichki qonun hujjatlarining talablariga javob beradigan transport hujjatlari tuzilishi zarur. Bunday hujjatlarning mavjud bo'lishi taraflar o'rtasida tashish shartnomasi tuzilganligini bildiradi, uning shartlarini belgilaydi va transport tashkilotiga tashishni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Transportning ayrim turlarida yuklarni tashishga tatbiqan olganda tarixan hujjatlarning ikkita tizimi tarkib topdi va qo'llanilmoqda, bular: yuk xati (temiryo'l, avtomobil, havo yo'llarida tashishlar) hamda konosament (dengizda, ichki suv yo'llarida tashishlar). Boshlang'ich asoslari umumiy bo'lgani holda ular o'rtasida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan farqlar bor. Masalan, xalqaro tashishda qo'llaniladigan yuk xatida Jeneva Konvensiyasiga muvofiq, uning tuzilgan joyi va sanasi, jo'natuvchining, tashuvchining ismi va manzili, yukni tashish uchun qabul qilish joyi va sanasi va mo'ljallangan yetkazib berish joyi, oluvchining nomi va manzili, tovarlarning tabiati va ularni qadoqlash usulining belgisi, xavfli yuklarni tashishda ularning umumiy e'tirof etilgan belgilanishi, paketlar soni, ularning maxsus belgilari va raqamlari, yukning og'irligi yoki boshqa o'lchov birliklarida ifodalangan yuk miqdori, tashish bilan bog'liq xarajatlar (tashish to'lovi, qo'shimcha xarajatlar, bojxona to'lovlari va yig'imlar, shuningdek shartnoma tuzilgan paytdan boshlab tovar yetkazib berilgunga qadar boshqa xarajatlar), bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'rsatmalar va boshqalar belgilangan bo'lishi lozim. Shuningdek, ortiqcha yukni ta'qiqlash, jo'natuvchi o'z hisobidan qabul qiladigan xarajatlar, yuk yetkazib berilgandan keyin qoplanishi shart bo'lgan yuk uchun belgilangan to'lov miqdori, yukning e'lon qilingan qiymati va jo'natuvchi uchun qo'shimcha qiymati, jo'natuvchining tashuvchiga yukni sug'urta qilish bo'yicha ko'rsatmalari, tashishning kelishilgan vaqti, tashuvchiga topshirilgan hujjatlar ro'yxati ham zarur hollarda kiritilishi mumkin.⁴

Xalqaro yo'lovchi tashishda shakli odatda transport tashkilotlarining o'zi tomonidan belgilanadigan chipta transport hujjati hisoblanadi. Xalqaro qatnovda bagajni tashish bagaj pattasi bilan rasmiylashtiriladi.

Xalqaro tashishlar bilan bog'liq kollizion normalar birinchi navbatda davlatlararo bitimlar (transport konvensiyalari nazarda tutilmoqda) bilan, bular bo'lmasa yoki ularda kollizion masalalar tartibga solinmagan bo'lsa, ichki huquq bilan belgilanadi. Xalqaro transport sohasidagi kollizion normalarning boshqa umumiy o'ziga xosligi asosiy institut – tashish shartnomasining bir qancha kollizion bog'lanishlar (ya'ni shunday munosabatlarning guruhiga qo'llanilishi lozim bo'lgan bironta davlatning huquqiga murojaat qilish) ta'siriga bo'ysundirilishidan (bog'lanishlarning ko'pligi) iboratdir.

Xalqaro qatnov to'g'risidagi bitimlar va ichki qonun hujjatlari yuklar va yo'lovchilar tashish bo'yicha munosabatlar uchun quyidagi kollizion bog'lanishlar (taraflar o'rtasida yuk va yo'lovchilarnin tashish bilan bog'liq nizo kelib chiqqan taqdirda qaysi davlat huquqini qo'llash lozimligi)ni nazarda tutadi:

1. jo'natish mamlakat qonuni; (bunda yuk(yo'lovchi) qaysi mamlakatdan jo'natilayotgan bo'lsa o'sha mamlakat huquqi qo'llanilishini nazarda tutadi)

4

2. o'tib borilayotgan mamlakat qonuni; (nizo real vaqtda qaysi mamlakat hududidan o'tish paytida yuzaga kelgan bo'lsa o'sha mamlakat huquqini qo'llash)
3. yuk to'xtatib qolingani (turilgan) mamlakat qonuni; (yuk qaysi mamlakat hududida to'xtatib qolingani bo'lsa, o'sha mamlakat qonunini qo'llash)
4. tashish shartnomasi o'zgartiriladigan mamlakat qonuni; (tashish shartnomasi qaysi mamlakat hududida o'zgartirilgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqini qo'llash)
5. hodisa sodir bo'lgan joy mamlakat qonuni; (delikt ya'ni zarar yetkazishdan iborat munosabatlar qaysi davlat hududida sodir etilgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqini qo'llash)
6. yuk tayinlangan mamlakat qonuni; (yuk yetkazib beriladigan joy qonuni)
7. da'vo (talab) bildirilgan mamlakat qonuni; (da'vo qaysi mamlakat hududida bildirilgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqini qo'llash)
8. sudida da'vo (sud qonuni) ko'rib chiqiladigan mamlakat qonuni. (ish qaysi mamlakat sudida ko'rilsa o'sha mamlakat huquqini qo'llash kerak bo'ladi)

Xalqaro avtomobilda tashish deganda, huquqiy tushuncha nomiga monand xalqaro shartnoma bo'yicha yuk va yo'lovchilarni avtoransport vositalarida tashishga aytilib, jo'natish joyi bir mamlakat hududida bo'lsa, qabul qilish belgilangan joy esa boshqa mamlakat hududida joylashgan bo'ladi. Shuningdek, huquqiy adabiyotlarda avtomobil transportida tranzit tashishlar ham xalqaro avtomobil tashishlari hisoblanadi. Ushbu shartnomaning o'ziga xos huquqiy belgisi – ularning ikkitomonlama tashqi savdo bitimiga o'xshashligidir. Bunda bir mamlakatning avtotransport vositalari davlat chegarasini kesib o'tadi va boshqa davlatning yo'llari orqali o'tib boradi. Shu sababli, xalqaro avtomobil qatnovini rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash maqsadida bir xil tarzdagi yo'l harakati qoidalari, yo'l belgilari va signallarini birxillashtirish zarur bo'ladi. Chet davlat hududi orqali tashishni amalga oshirish shu chet davlat vakolatli organning tegishli ruxsatnomasini olishni taqozo etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida ruxsatnoma olish tizimi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 277-sonli "Avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan huquqiy tartibga solinadi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda avtomobil transportida tashish munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar ko'proq regional darajada qabul qilinadi. Yevropada quyidagi xalqaro hujjatlar hozirgi kunda amalda: 1949-yil 19-sentabrda qabul qilingan "Yo'l harakati to'g'risida"gi konvensiya, "Yo'l harakati to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shimcha sifatida qabul qilingan Yevropa bitimi (1971), Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi Protokol (1968), 1975-yil 15-noyabrda qabul qilingan Xalqaro avtomagistrallar to'g'risidagi Yevropa bitimlari mavjud.

Ko'pchilik yuridik adabiyotlarida Yevropa regional bitimlari ichida 1954-yil 19-mayda qabul qilingan "Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomalari to'g'risida"gi konvensiya (keng qo'llaniladigan ruscha qisqartma tushuncha KDPG-Конвенция дорожной перевозки грузов) va 1975-yil 14-noyabrdagi "MDP kitoblarini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risida"gi konvensiya (MDP konvensiyasi Bojxona konvensiyasi deb ham ataladi) muhim rol o'ynashi belgilangan.

KDPGda yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartlari unifikatsiya qilingan. Tashuvchi bilan yuk egasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish, yuklarni qabul qilib olish va ularni qabul qilib olish belgilangan joyda topshirish tartibi konvensiyaning qo'llanish

doirasini tashkil qiladi. Transport vositalari orqali yuklarni yo'llarda tashish bo'yicha haq evaziga tuziladigan barcha shartnomalar konvensiyaning qo'llash sohasini tashkil qiladi. Bunda yuklarni jo'natish yoki yuklarni qabul qilib olish joyi turli mamlakatlarda bo'lishi hamda hech bo'lmaganda ushbu davlatlardan biri konvensiyaga a'zo bo'lishi lozim. Konvensiyani qo'llash shartnoma taraflarining yashash joyi va millatiga bog'liq emas.

KDPG normalari imperativ xususiyatga ega bo'lib, ularga amal qilmaslik shartnomani haqiqiy emas deb topishga asos bo'ladi. Shartnomaga a'zo davlatlar konvensiya qoidalarini tor doirada qabul qilingan bitimlar bilan o'zgartish huquqiga ega emaslar. Konvensiya o'zida moddiy-huquqiy va kollizion normalarni mujassamlashtirgan. Kollizion tartibga solish o'zida umumiy va maxsus kollizion normalarni (erk muxtoriyati, sud qonuni, yuk jo'natish va yuk turgan joy qonuni (umumiy); javobgar korxonasi bosh boshqarmasi joylashgan joy qonuni, shartnoma tuzgan kontoraning joylashgan joyi qonuni, tashuvchiga yuk taqdim qilinadigan joy qonuni (maxsus) qo'llashni nazarda tutadi.

MDP kitoblarini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi Konvensiyasi (MDP konvensiyasi) xalqaro avtomobil transportida yuklarni tashishda asosiy atribut sifatida MDP kitoblarini ko'rsatib o'tadi. MDP kitobi – yagona bojxona hujjati MDP hududida jo'natish mamlakati bojxonasidan qabul qilib olinishi belgilangan mamlakat bojxonasigacha yuklarni borishida asosiy hujjat hisoblanadi.

Konvensiya kafolat beruvchi birlashmalar institutini joriy qiladi. Unga ko'ra kafolat beruvchi birlashma konvensiyada ishtirok etuvchi mamlakatlarning bojxona organlari tomonidan tan olingan bo'lishi va yuklarni xalqaro yo'llarda tashish jarayonlaridan foydalanuvchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilishda garant vazifasini bajarib berishi belgilangan. O'zbekistonda kafolat beruvchi birlashma vazifasini O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi amalga oshiradi. Ushbu organ O'zbekiston avtomobil transportida yuk tashuvchilarni MDP kitoblari bilan ta'minlaydi va MDP jarayonlarini qo'llaganlik natijasida yuzaga kelgan shikoyatlarni tartibga solish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi. MDP jarayonlarini qo'llagan holda tashilayotgan yuklar oraliq bojxonalaridagi kirish-chiqish bojlari va yig'implaridan ozod qilinadi. MDP operatsiyalarini amalga oshirayotgan avtomobil transporti vositalarida "TIR"(Transport international road) deb yozilgan maxsus jadval o'rnatilgan bo'lishi lozim. "TIR" belgisi yuklarni bojxonada birinchi bo'lib rasmiylashtirish imkoniyatini yaratib beradi.

Avtomobil transporti masalalari bilan shug'ullanuvchi 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar mavjud. BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyaning Ichki transport bo'yicha komiteti (KVT) va Xalqaro avtomobil transporti Ittifoqi (MSAT) ularning ichida obro'li tashkilotlar hisoblanadi. KVT 1948-yilda tashkil qilingan bo'lib, barcha turdagi ichki transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hukumatlararo tashkilot vazifasini bajaradi. BMT EIK(Yevropa iqtisodiy Komissiyasi)ning barcha ishtirokchilari konvensiyaning a'zolari hisoblanadilar. KVT tomonidan 40 ga yaqin xalqaro konvensiyalar hamda 50 dan ortiq transport vositalari konstruksiyalari bo'yicha yagona qoidalar ishlab chiqilgan. KVT ishtirokida yetkazilgan zarar uchun transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimi – "yashil karta" tizimi ishlab chiqilgan.

Xalqaro yo'lovchilar va bagajlarni tashishni tashkil etish va nazorat qilish tartibi ushbu konvensiyaning ajralmas qismi bo'lgan Yo'lovchilar tashish qoidalarini bilan belgilanadi. Konvensiyaning qoidalariga muvofiq tashuvchi tashish vaqtida yo'lovchining sog'lig'iga

yetkazilgan zarar yoki bagajga yetkazilgan zarar uchun, hodisa ro'yi bergan joy yoki vaqtdan qat'i nazar, yo'lovchining o'limi yoxud unga tan jarohati yetkazilgani yoki yo'lovchi sog'lig'iga yetkazilgan har qanday zarar uchun bagajning to'la yoki qisman yo'qotilgani yoki unga shikast yetgani uchun javobgardir. Yo'lovchi o'zi yoki bagaji manzilga yetib kelgan kundan e'tiboran 7 kun mobaynida tashuvchiga da'vo qilish huquqiga ega.

Yuqoridagilarga asoslangan holda xalqaro doirada davlatlar o'rtasida yoki bir necha davlatlararo yuk va yo'lovchi tashishda yuzaga keluvchi kollizion nizolar davlatlar o'rtasida xalqaro shartnoma yoki bitim mavjud bo'lganda ushbu normalar bo'yicha, ular mavjud bo'lmaganda esa ichki qonun normalari asosida umumiy qoidaga ko'ra, jo'natish mamlakat qonuni, yuk yetkazib berilayotgan mamlakat qonuni qo'llaniladi. Boshqa hollarda esa o'tib borayotgan mamlakat qonuni yoki sud qonuni qo'llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гетьман-Павлова-И.В. Международное частное право. 2013.
2. Богуславский. Международное частное право. 2005.
3. Xalqaro xususiy huquq darsligi. Mualliflar jamoasi. I.Rustambekov umumiy tahrirligi ostida. TDYU. 2019
4. "Yuklarni xalqaro avto yo'llarda tashish to'g'risida"gi Jeneva Konvensiyasi 1956-yil 19-may.
5. "MDP kitoblarini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risida"gi konvensiya 1975-yil 14-noyabr
6. "Xalqaro ko'lamdagi yo'lovchi va yuklarni avtomobillarda tashish to'g'risida"gi konvensiyaga ilova hisoblanuvchi Mustaqil davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning xalqaro aloqalarida yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalari. Bishkek konvensiyasi 1997-yil 7-oktabr
7. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 277-sonli "Avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori
8. "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasini qarori